ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDA INTERAKTIV MUNOSABATLAR

Jonzoqova S.A., GulDU Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
sayyorajonzoqova4@gmail.com

Annotatsiya. mazkur tezisda zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida shakllanadigan interaktiv munosabatlarning mohiyati, ahamiyati va ta’lim sifati hamda samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Mualliflar interaktiv muloqotning asosiy turlari, pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishdagi roli hamda bu munosabatlarning o‘qituvchi faoliyatidagi motivatsiya bilan bog‘liqligini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, interaktiv munosabatlar, o‘quvchi faolligi, pedagogik innovatsiyalar, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ijodiy yondashuv, o‘zaro hurmat va ishonch, rivojlantiruvchi muhit, o‘z-o‘zini boshqarish va baholash, motivatsiya va rag‘batlantirish

Аннотация. в данном тезисе анализируются сущность, значение и влияние интерактивных отношений, складывающихся между учителем и учеником в современном образовательном процессе, на качество и эффективность обучения. Авторы раскрывают основные виды интерактивного общения, его интеграцию с педагогическими технологиями, роль в повышении активности учащихся в процессе урока, а также связь этих отношений с мотивацией в деятельности учителя.

Ключевые слова: современное образование, интерактивные отношения, активность учащихся, педагогические инновации, творческий подход, развивающая среда, самоуправление и оценка, мотивация и поощрение.

Abstract. this thesis analyzes the essence, importance, and impact of interactive relationships between teachers and students in the modern educational process on the quality and effectiveness of education. The authors reveal the main types of interactive communication, its integration with pedagogical technologies, its role in increasing students' activity in the learning process, and the relationship of these relationships with motivation in teacher activity.

Keywords: modern education, interactive relationships, student activity, pedagogical innovations, creative approach, developmental environment, self-management and assessment, motivation and encouragement

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta’lim tizimi ham jadal rivojlanmoqda. An’anaviy, biryoqlama bilim berish uslublari zamonaviy talablarni to‘liq qondira olmaydi. Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchining faolligi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv munosabatlar asosiy o‘rin tutadi. Interaktiv munosabatlar bilim berish jarayonini yanada mazmunli, samarali va qiziqarli qiladi.

Interaktiv munosabat – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro ta’sir, fikr almashish, savol-javob qilish, bahs-munozaralar olib borish orqali bilim olish va tarbiyalash jarayonidir. Ushbu yondashuvda o‘quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki o‘z fikri, tajribasi, tahlili bilan o‘qituvchi faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Interaktiv munosabatlar orqali o‘quvchining mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi, o‘z fikrini aniq va asosli ifodalash ko‘nikmalari shakllanadi, tanqidiy va tahliliy yondashuv kuchayadi, muloqot madaniyati rivojlanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchi ham interaktiv yondashuv orqali dars jarayonini doimiy ravishda baholab, o‘z uslubini takomillashtirib boradi.

Tajribalar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, interaktiv dars uslublari va o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi faol munosabatlar ta’lim natijalariga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, o‘quvchilarning darsga nisbatan qiziqishi va ishtiroki ortadi. Ular o‘quvchilarning faolligini oshirib, dars jarayonida faol ishtirok etishlariga imkon beradi. Quyidagi usullar bu maqsadga xizmat qiladi:

1. Savol-javob va munozaralar:

Dars davomida o‘quvchilarga savollar berish, ularni o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga undash o‘quv jarayonini jonlantiradi.

2. Guruhda ishlash:

O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, ularga birgalikda vazifa berish hamkorlikda o‘rganishga va o‘zaro fikr almashishga yordam beradi.

3. *Rol o‘ynash (Rolli o‘yinlar):*

Tarix, adabiyot yoki boshqa fanlarda o‘quvchilarga tarixiy shaxslar yoki qahramonlar rolini berib, ularni sahnalashtirish orqali mavzuni chuqurroq tushunishlari ta’minlanadi.

4. Interaktiv texnologiyalarni qo‘llash:

Elektron testlar, viktorinalar, virtual taqdimotlar va interaktiv doskalar yordamida darslarni qiziqarli va zamonaviy qilish mumkin.

5. «Aqliy hujum» usuli:

Berilgan muammo yuzasidan o‘quvchilardan imkon qadar ko‘proq g‘oya va yechimlar so‘raladi. Bu usul o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

6. O‘yin texnologiyalari:

Dars jarayoniga mos o‘yin elementlarini kiritish (masalan, bilimlar bellashuvi, krossvord tuzish) o‘quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, bilimlarning amaliy qo‘llash darajasi yuqorilaydi. Bunda o‘quvchilar bilimlarni mustaqil tahlil qilish, real hayotda qo‘llash va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Interaktiv metodlar (laboratoriya ishlari, rolli o‘yinlar, loyihalar) o‘quvchilarga o‘rgangan nazariy bilimlarini amalda sinab ko‘rishga imkon beradi, mustaqil fikr yuritishga, o‘z qarorlarini asoslab berishga o‘rgatadi. Ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirib, o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etishga, yangi usullarni izlashga yordam beradi, o‘z ishlari va o‘zaro baholash orqali bilim darajasini aniqlab, kamchiliklarini tuzatishga o‘rganadilar.

Uchinchidan, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi. Bunda o‘quvchilar mustaqil qarorlar qabul qilishni, o‘z fikrini asoslab berishni, yangicha va noodatiy yondashuvlarni ishlab chiqishni o‘rganadilar. Bahs va munozaralarda turli nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqish orqali o‘quvchilar mustaqil tahlil qilishni va xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

Rol o‘ynash, loyiha metodlari va kreativ topshiriqlar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va yangi g‘oyalar yaratishga undaydi.

Interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini senzurasiz, erkin ifoda etishga o‘rganadilar. Bu esa ijodkorlikni kuchaytiradi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarga o‘z fikri va harakati natijasini ko‘rsatib beradi. Ular o‘zlari yechim izlagani uchun bilimni o‘zlashtirish darajasi ham ortadi. Interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilar nafaqat darsda, balki real hayotda ham mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu esa kelajakda ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash va o‘z ustida ishlash motivatsiyasi shakllanadi. Bu jarayon o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida juda muhim rol o‘ynaydi.

Quyida interaktiv metodlarning bu sohalardagi asosiy ta’sirlari ko‘rib chiqamiz:

1. O‘z-o‘zini baholashni rivojlantirish

a) Refleksiya metodlari

Dars so‘nggida o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilib, «Men bugun nimani o‘rgandim?», «Nimasi menga qiyin bo‘ldi?», «Nimani yaxshilashim kerak?» kabi savollarga javob beradilar.

b) Reyting va o‘zaro baholash

Interaktiv metodlar (masalan, guruhli ishlarda) o‘quvchilarga o‘zaro baholash imkonini beradi. Shu orqali ular o‘z faoliyatlarini va boshqalar ishini ob’ektiv tahlil qilishni o‘rganadilar.

2. O‘z ustida ishlashni rag‘batlantirish

a) Individual yutuqlarni aniqlash

Interaktiv darslarda har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatlarini ochib beradi va qaysi sohada o‘zini rivojlantirishi kerakligini anglaydi.

b) Maqsad qo‘yish va unga erishish

Interaktiv metodlar jarayonida o‘quvchilarga kichik maqsadlar qo‘yish va ularni bosqichma-bosqich bajarish topshiriladi. Bu ularni mustaqil harakat qilishga undaydi.

3. Doimiy o‘zgarish va rivojlanishga undash.

Interaktiv metodlar o‘quvchiga bilim faqat o‘qituvchidan kelmasligini, o‘z ustida ishlash orqali bilim va ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirish zarurligini tushuntiradi. O‘quvchilarda shaxsiy mas’uliyat va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyati shakllanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy ta’limda interaktiv munosabatlarni yo‘lga qo‘yish zarurati tobora ortib bormoqda. Interaktiv metodlar yordamida o‘quvchi o‘z bilim va ko‘nikmalarini tahlil qilish, kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun faol harakat qiladigan shaxs sifatida shakllanadi. O‘z-o‘zini baholash va o‘z ustida ishlash madaniyatini rivojlantirish o‘quvchining mustaqil va muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib yetishishida asosiy poydevor vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Очилов М. Янги педогогик технологиялар Ўқув қўлланма. - Нафас 2000

2. У.Т.Усаров, М.Н.Бобоқулова —Замонавий педагогик технологияларни ўқув жараёнига қўллаш Самарқанд-2008

3. Ишматов Қ. Педогогик маҳорат асослари. Наманган, НамМПИ. 2005

4.Mustafoyeva D., Xolmamatov M., Qarshiyev S. “Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlarni qo‘llash” I international scientific and practical conference “modern education and psychology facing complex problems: synergetic approach problems affecting personal development”, APRIL 15, 2025 159-161 bet

5. Tarasova I. M. Interfaol o‘qitish usullari tabiiy fanlarni o‘qitishda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida / / xalqaro eksperimental ta’lim jurnali. – 2015.